



UDK: 37.0612

ZAMONAVIY TA'LIM SHAROITIDA
BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING INFORMATSION-ANALITIK
KOMPETENTLIGIGA QOYILAYOTGAN TALABLAR

Usmonova Kamola Erkinovna

Farg'onan davlat universiteti tayanch doktoranti

E-mail: usmonovakamola70@gmail.com

Tel.: +998905811984


ORCID: 0009-0005-9716-0266

Annotatsiya: Ushbu maqolada informatsion-analitik kompetentlikning ta'limgizimidagi ahamiyati va uning kelajakdagi o'qituvchilar faoliyatida tutgan orni tahlil qilingan. Zamonaviy ta'limgizimida informatsion-analitik kompetentlik o'qituvchining eng muhim kasbiy ko'nikmalaridan biri sifatida qaralmoqda. Bu kompetentlik nafaqat ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va to'g'ri xulosalar chiqarishni, balki ta'limgiz jarayonini samarali tashkil etish va boshqarishda innovatsion yondashuvlarni joriy etishni ham o'z ichiga oladi. Jamiyatning raqamlashuvi, axborot texnologiyalarining rivojlanishi kelajakdagi o'qituvchilardan yangi turdag'i bilim va salohiyat talab qilishini anglatadi. Ushbu jarayonda o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki tahlilchi, tadqiqotchi va mutaxassis sifatida faoliyat yuritishi lozim. Maqolada kelajakdagi o'qituvchilar tayyorlov jarayonida bu kompetentlikni samarali shakllantirish uchun ta'limgiz dasturlarini qayta ko'rib chiqish va amaliy yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalarni joriy etish lozimligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: informatsion-analitik kompetentlik, o'qituvchi, ta'limgiz, raqamli savodxonlik, axborot tahlili, pedagogik faoliyat, kompetentlik yondashuv, tanqidiy fikrlash, ta'limgiz sifatini oshirish, raqamli texnologiyalar, kasbiy rivojlanish, innovatsiya.

**ТРЕБОВАНИЯ К ИНФОРМАЦИОННО-АНАЛИТИЧЕСКОЙ
КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ В УСЛОВИЯХ
СОВРЕМЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ**

Аннотация: В данной статье проанализировано значение информационно-аналитической компетентности в системе образования и её роль в деятельности будущих учителей. В современной образовательной системе информационно-аналитическая компетентность рассматривается как одно из важнейших профессиональных умений педагога. Эта компетентность включает не только сбор, анализ информации и формирование правильных выводов, но и внедрение инновационных подходов в организации и управлении образовательным процессом. Цифровизация общества и развитие информационных технологий требуют от будущих учителей новых знаний и потенциала. В этом процессе учитель должен выступать не только как передатчик знаний, но и как аналитик, исследователь и специалист. В статье подчёркивается необходимость пересмотра образовательных



программ и внедрения практико-ориентированных педагогических технологий для эффективного формирования данной компетентности у будущих учителей.

Ключевые слова: информационно-аналитическая компетентность, учитель, образование, цифровая грамотность, анализ информации, педагогическая деятельность, компетентностный подход, критическое мышление, повышение качества образования, цифровые технологии, профессиональное развитие, инновации.

REQUIREMENTS FOR THE INFORMATION-ANALYTICAL COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS IN THE CONTEXT OF MODERN EDUCATION

Annotation: This article analyzes the importance of informational-analytical competence in the education system and its role in the activities of future teachers. In the modern educational system, informational-analytical competence is considered one of the most essential professional skills of a teacher. This competence includes not only the ability to collect and analyze data and draw correct conclusions, but also the implementation of innovative approaches in organizing and managing the educational process. The digitalization of society and the development of information technologies require future teachers to possess new types of knowledge and potential. In this context, a teacher must function not only as a knowledge provider but also as an analyst, researcher, and specialist. The article emphasizes the need to revise educational programs and introduce practice-oriented pedagogical technologies in order to effectively develop this competence in future teachers.

Keywords: informational-analytical competence, teacher, education, digital literacy, information analysis, pedagogical activity, competence-based approach, critical thinking, improving education quality, digital technologies, professional development, innovation.

KIRISH

Jadal rivojlanayotgan raqamli texnologiyalar davrida ta'lim tizimi ham tubdan o'zgarish va yangilanish bosqichiga qadam qo'yemoqda. Bu o'zgarishlar natijasida o'qituvchining an'anaviy roldan tashqari, yangi ko'nikmalarga ega bo'lgan, axborotni tahlil qilish, saralash va undan maqsadli foydalanish qobiliyatiga ega mutaxassis sifatidagi roliga ehtiyoj ortib bormoqda. Xususan, informatsion-analitik kompetentlik — bugungi kunda zamonaviy o'qituvchi uchun eng muhim kasbiy salohiyatlardan biriga aylanmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, ko'pgina pedagog kadrlar informatsion texnologiyalardan foydalanish bo'yicha ma'lum ko'nikmalarga ega bo'lsalar-da, ma'lumotlarni tahlil qilish, jarayonlarda analitik yondashuvni shakllantirish, axborotni tanlash borasida yetarli salohiyatga ega emaslar. Bu esa ta'lim jarayonida samaradorlikning kamayishiga, innovatsion yondashuvlarni to'g'ri qollay olmaslikka olib kelmoqda. Ayni paytda, ilmiy



adabiyotlarda informatsion-analitik kompetentlikning aniq ta'rifi, uni shakllantirish yo'llari va baholash mezonlari to'liq o'rganilmagan. Shuningdek, kelajakdagi o'qituvchilar uchun mazkur kompetentlikning o'quv dasturlarida qay darajada inobatga olinayotgani ham yetarlicha taddiq etilmagan. Shundan kelib chiqib, informatsion-analitik kompetentlik tushunchasining mazmunini ochib berish, uning ta'limgagi ahamiyatini aniqlash hamda kelajakdagi o'qituvchilarda ushbu kompetentlikni shakllantirish zaruriyatini asoslash maqsad qilib olingan. Tadqiqotning asosiy vazifalari: informatsion-analitik kompetentlikning mazmuni va tarkibiy qismlarini tahlil qilish; mazkur kompetentlikning pedagogikadagi o'rni va ahamiyatini aniqlash; zamonaviy o'qituvchilar uchun qo'yilayotgan yangi talablar va ularda informatsion-analitik qobiliyatlarni rivojlantirish mexanizmlarini belgilash; ushbu kompetentlikni shakllantirish bo'yicha ilg'or tajribalar va tavsiyalarni berishdan iborat xisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Informatsion-analitik kompetentlik – zamonaviy ta'limda yuqori samaradorlikka erishishda muhim omillardan biri hisoblanadi. Bu kompetentlikning mazmuni, shakllanish mexanizmlari va o'qituvchi faoliyatidagi o'rni bir qator ilmiy tadqiqotlarda o'rganilgan bo'lsa-da, ayrim muhim jihatlar hali ham yetarlicha ochib berilmagan. Pedagogik kompetentlik to'g'risidagi umumiy nazariy qarashlar L.M.Mitina, N.D.Nikandrov, A.K.Markova kabi olimlar tomonidan keng yoritilgan. Ularning ishlarida o'qituvchining kasbiy salohiyati, bilim va ko'nikmalari tizimi sifatida baholangan. Ammo bu kompetentlikni axborotni tahlil qilish, saralash, qayta ishslash, manbalarni tanlash va ularga tanqidiy yondashish nuqtai nazaridan baholashga yetarlicha e'tibor qaratilmagan. Informatsion texnologiyalar va ta'lim jarayonida ularidan samarali foydalanish bo'yicha tadqiqotlar T.I.Shamova, Y.S.Polat, S.G.Selevko kabi mutaxassislar tomonidan amalga oshirilgan. Ushbu tadqiqotlarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali ta'lim sifatini oshirish imkoniyatlari ko'rsatib o'tilgan, ammo analitik yondashuv va axborotni tahlil qilish qobiliyatiga yo'naltirilgan kompetentlik alohida o'rganilmagan. Oliy ta'lim muassasalarida kelajakdagi o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida informatsion madaniyat, axborot bilan ishslash ko'nikmalarini



shakllantirish bo'yicha izlanishlar ham mavjud. Xususan, I.V.Xan, N.V.Makarova, A.Y.Uvarova ishlarida raqamli savodxonlik va axborot bilan ishlashdagi malaka ko'nikmalariga alohida urg'u berilgan. Ammo bunday ko'nikmalarni analitik fikrlash bilan bog'lash, tahlil, proqnoz va qaror qabul qilish qobiliyati darajasida o'rganish hali yetarli emas.

Shuningdek, mahalliy tadqiqotchilardan J.T.Yo'ldoshev, D.M.Abdullayev, Sh.I.Toshpo'latova kabi olimlar ta'limda raqamli transformatsiya jarayonlari, o'qituvchi rolining o'zgarishi va yangi kompetentliklarga bo'lgan talablar haqida fikr bildirganlar. Ular ta'limni raqamlashtirish jarayonida pedagoglarning informatsion kompetentlikka ega bo'lishi lozimligini ta'kidlaydilar, biroq informatsion-analitik kompetentlikni alohida yo'nalish sifatida tadqiq etishga kam e'tibor berilgan. Yuqorida keltirilgan adabiyotlar tahlili shundan dalolat beradiki, hozirgi kunda ta'limda informatsion-analitik kompetentlikning o'rnnini yanada chuqurroq o'rganish, uning mazmuni, shakllanish jarayonlari hamda kelajakdagi o'qituvchilarni tayyorlashdagi ahamiyatini aniqlash dolzarb vazifa hisoblanadi. Shu jihatdan, ushbu maqola mavjud ilmiy ishlarga tayangan holda, mazkur kompetentlikni aniqlash va tahlil etishga qaratilgan bo'lib, mavjud bo'shliqlarni to'ldirishga xizmat qiladi.


NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, informatsion-analitik kompetentlik – bu faqatgina axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmasi emas, balki ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish, interpretatsiya etish, tanqidiy va tizimli yondashuv asosida to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyatini ham o'z ichiga oladigan murakkab kasbiy kompetentlik hisoblanadi. Ta'lim sohasida yuz berayotgan raqamli transformatsiya jarayonlari o'qituvchidan yangi ko'nikmalarni talab etmoqda. Xususan, raqamli resurslardan maqsadli va samarali foydalanish, axborot xatarlarini baholash, faktlarni tahlil qilish va turli manbalarni tanqidiy tahlil qilish qobiliyati bugungi kunda har bir pedagog uchun zarur hisoblanadi. Olib borilgan tahlillar asosida aniqlandiki, hozirgi kunda oliy ta'lim muassasalarida kelajakdagi o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida informatsion kompetentlikka ma'lum darajada e'tibor qaratilmoqda, biroq bu jarayonda analitik fikrlashni shakllantirish va axborotni tahlil qilish kabi jihatlar yetarlicha qamrab olinmagan. Ta'lim dasturlari

va o‘quv metodik materiallarda informatsion-analitik kompetentlik alohida komponent sifatida aks etmagani, yosh pedagoglar mazkur kompetensiyani mustaqil ravishda rivojlantirishga majbur bo‘layotganini ko‘rsatadi. Shuningdek, o‘qituvchi faoliyatidagi bu kompetentlik ta’lim sifatini oshirish, innovatsion yondashuvlarni qo’llash, talabalarda mustaqil ta’lim olish qobiliyatini rivojlantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Mos ravishda, bu kompetentlikni shakllantirish uchun ta’lim jarayonida integratsiyalashgan, amaliy yo‘naltirilgan, loyiha va masalaga asoslangan ta’lim texnologiyalarini joriy etish talab etiladi.

Tadqiqot jarayonida informatsion-analitik kompetentlikning shakllanish darajasini baholash maqsadida Farg'ona davlat universitetida tahsil olayotgan 4-bosqich pedagogika yo'nalishi talabalari o'rtasida so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnomada jami 120 nafar talaba ishtirok etdi. So'rovnoma 15 ta savoldan iborat bo'lib, unda bilim, ko'nikma va amaliyotdagi qo'llash tajribasi qamrab olindi.

Informatsion-analitik kompetentlikning shakllanish darajasini baholash



Bu natijalardan ko‘rinib turibdiki, talabalarda axborotni topish va foydalanish ko‘nikmalari yuqori darajada shakllangan bo‘lsa-da, uni tahlil qilish, tanqidiy baholash va strategik qaror chiqarish qobiliyatlari yetarlicha rivojlanmagan. Bundan tashqari, ko‘pchilik talabalar ushbu kompetentlikni o‘z kasbiy faoliyati uchun muhim deb hisoblashi, lekin amalda uning elementlarini to‘liq o‘zlashtirmaganini ko‘rsatmoqda.



XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, zamonaviy ta'lism tizimida informatsion-analitik kompetentlik o'qituvchining kasbiy salohiyatining ajralmas qismi sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu kompetentlik nafaqat axborot texnologiyalaridan foydalanish, balki axborotni to'g'ri qabul qilish, tahlil qilish, baholash va undan maqsadli foydalanish jarayonlarini qamrab oladi. Jahon ta'lism maydonida yuz berayotgan raqamlı transformatsiya, axborot oqimlarining ortishi, bilimning tez yangilanishi fonida o'qituvchining informatsion-analitik qobiliyatları nafaqat dolzarb, balki strategik ahamiyat kasb etmoqda. Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda pedagog kadrlar tayyorlash jarayonida informatsion kompetentlikka e'tibor berilsa-da, uning "analitik" komponenti yetarlicha qamrab olinmayapti. Shu sababli, ta'lim dasturlari, metodik materiallar va o'quv jarayonlarida informatsion-analitik kompetentlikni shakllantirishga qaratilgan maqsadli yondashuvni joriy etish zarur. Kelajakdag'i o'qituvchilar: axborotni tanlash va saralash; tahlil qilish va interpretatsiya etish; tanqidiy fikrlash asosida qaror qabul qilish; axborot xavfsizligi va ishonchlilagini baholash kabi qobiliyatlarga ega bo'lishlari talab etiladi. Bu esa o'qituvchining bilim berishda nafaqat ma'lumot yetkazuvchi, balki yosh avlodni axborot oqimida to'g'ri yo'naltiradigan, intellektual yetakchi sifatida faoliyat yuritishini ta'minlaydi. Mazkur kompetentlikni rivojlantirish pedagog kadrlar tayyorlashda ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilanishi lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Селевко Г.К. Компетентностный подход в образовании — М.: Народное образование, 2006.(Competency-Based Approach in Education)
- Уварова А.Ю., Макарова Н.В. Формирование информационно-аналитической компетентности студентов вуза в условиях цифровизации образования // Вестник ТГПУ. — 2021. — №4. — С. 67–72.(Development of University Students' Information-Analytical Competence in the Context of Education Digitalization)
- Абдуллаев Д.М. Ўқитувчиларда рақамли саводхонликни ривожлантириш масалалари // Педагогика фанлари журнали. — Тошкент, 2022. — №2. — Б. 45–50. (Issues of Developing Digital Literacy Among Teachers)
- Тошпўлатова Ш.И. Таълим жараёнида ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланишнинг самарали йўллари // Ўзбекистонда педагогик



тадқиқотлар. — 2023. — №1. — Б. 32–36.(Effective Ways of Using Information and Communication Technologies in the Educational Process)